

1913 yilda Chustda yangi usuldagi maktab ochib, maktab eshigining tepasiga shunday deb yozdirib qo'ygan ekan: «Men ul bo'yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o'n ikki oyda oq qilaman»¹. Uning maktabida ona tili, jo'g'rofiya, handasa kabi dunyoviy fanlar o'qitilgan. Diniy darslar deyarli o'qitilmagan.

Bu maktabdan tashqari Kamarsadada ham u etim bolalar uchun «Dorulaytom» (Etimlar uyi) va kattalar uchun kechki kurslar ochadi². Lekin So'fizoda ochgan bu yangi usul maktablari tezda bekitilib, uning o'zi «Muallimi kofir» deb e'lon qilinadi. Bu ham etmagandek, jaholatparastlar «Turkiston viloyatining gazetini»ni 1914 yil 1 yanvar sonida quyidagi mazmundagi xabarni bosib chiqaradilar. «Chust shahrida bir mulla shoir usuli jadid ochgan ekan. Chust aholilari aning axloqi buzuvchi deb maktabni tarqatib, o'zini Chustdin haydab yuborgan ekanlar». Oradan ko'p o'tmay, «Turkiston viloyatining gazetini»da shoirning muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar bizlar, berib pora, pristavlarni topgan chustilar bizlar, – deb boshlanadigan she'riy javobi bosilib chiqadi, she'r mahalliy hukumat vakillarini larzaga soldi. Shoirni qamadilar, oyog'idan sudrab sazoyi qildilar. Oqibatda shoir o'z vatanidan bosh olib chiqib, ma'lum muddat Xindiston va Afg'onistonda yashashga majbur bo'ldi. Lekin u o'zi tanlagan yo'ldan, haqiqatni xalqqa etkazishdan iborat bo'lgan maslake'tiqodidan hech qachon qaytmadi. Masalan, mana bu gapni o'z fikrining haqligiga astoydil ishongan, o'z maslagiga sadoqatni hamma narsadan aziz tutgan, adolat tantanasiga zarracha shubha qilmagan kishigina ayta oladi:

Quvdi meni johillar o'shandog' vatanimdan,
Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan³.

¹ *Қаранг:* Р. Расулов. Шоир Сўфизода ҳақида. Тароналар. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, -Т.: 1968, 6- бет.

² *Қаранг:* У. Долимов. Атоқли маърифатчи. «Шарқ юлдузи», 1982 йил 4- сони.

³ Б.Қосимов, У.Долимов. Маърифат дарғалари Тошкент, «Ўқитувчи», 1990, 137-138-бетлар.